

KOMPETENTLIK YONDOSHUV – TA'LIMNI YANGILASHNING YETAKCHI G'OYALARIDAN BIRI SIFATIDA

Muslimov Sherzod Narzulla o'g'li

T.N. Qori niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti PhD dotsent

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.039>

Annotatsiya. Maqolada kompetentlik yondoshuv – ta'limni yangilashning yetakchi g'oyalaridan biri sifatida, ta'lim mazmunining uzluksizligi va uzluksizligini ta'minlash, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: yondashuv, ta'lim, jarayon, tarkib, uzluksizlik, majburiyat, g'oya, axborot, kasbiy-grafik kompetentlik, natija.

КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД - КАК ОДНА ИЗ ВЕДУЩИХ ИДЕЙ ОБНОВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Муслимов Шерзод Нарзулла угли

Докторант Узбекского научно исследовательского института педагогических наук, PhD доцент

Аннотация. В статье рассматривается компетентностный подход – как одна из ведущих идей обновления образования, обеспечение преемственности и преемственности содержания образования, формирование профессиональной компетентности будущих педагогов.

Ключевые слова: подход, образование, процесс, содержание, преемственность, приверженность, идея, информация, профессионально-графическая компетентность, результат.

COMPETENCE-BASED APPROACH AS ONE OF THE LEADING IDEAS OF EDUCATION RENEWAL

Muslimov Sherzod Narzulla ugli

Doctoral student of the Uzbek Research Institute of Pedagogical Sciences, PhD Associate Professor

Abstract. The article considers the competence approach as one of the leading ideas of updating education, ensuring continuity and continuity of educational content, and the formation of professional competence of future teachers.

Keywords: approach, education, process, content, continuity, commitment, idea, information, professional and graphic competence, result.

Kirish. Insonning butun hayoti davrida davom etadigan va ta'limning barcha bosqichlaridan iborat bo'ladigan uzluksiz ta'lim shaxsning butun umr davomida intellektual rivojlanishining negizi sifatida uning hayot tarzini belgilovchi hisoblanadi va buni turlicha talqin qilish mumkin: kasbiy va umummadaniy kompetentlikning barcha shakllarini o'stirib borishning uzluksizligi, shaxsning faoliyati turlari sifatini oshirib borishning uzluksizligi, ta'limning muhim turlarining uzluksizligi va b. Bu holda, ta'limning uzluksizligi "uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim jarayonining tugallanganligi"ni bildiradi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida jamiyatda yashashi va mehnat qilishi kerak bo'lgan oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi quyidagi asosiy sifatlarga ega bo'lishi kerak:

kelajakda hayotda o'z o'rnini topa olishi uchun kerakli bilimlarni mustaqil ravishda egallab boradigan va amaliy faoliyatida turli muammolarni hal etishda ulardan mohirona foydalana oladigan, hayotning o'zgaruvchan vaziyatlarga tez moslasha oladigan bo'lishi;

mustaqil ravishda tanqidiy mushohada qila oladigan, hayotida vujudga keladigan

qiyinchiliklarni ko‘ra biladigan va ularni muvaffaqiyat bilan hal etish yo‘llarini izlashda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llay bilishi, yangi g‘oyalarni amalga oshira oladigan, ijodiy fikrlaydigan bo‘lishi;

axborot bilan ishlay oladigan bo‘lishi (tadqiqot uchun kerakli bo‘lgan masalalar, faktlarni yig‘a biladigan, ularni tahlil qila oladigan, muammolarni hal etish farazlarni qo‘ya oladigan, zarur bo‘lgan axborotni umumlashtirish va birbiriga o‘xshash yoki muqobil variantlarini taqqoslashlarni amalga oshira oladigan, statistik qonuniyatlarni aniqlay oladigan, asoslangan xulosalarni shakllantira oladigan va ular negizida yangi muammolarni aniqlay biladigan va hal eta oladigan bo‘lishi;

turli ijtimoiy guruhlarda oson muloqatga kirishib keta oladigan, har xil ziddiyatli vaziyatlarning oldini ola biladigan va bunday vaziyatlardan oqilona chiqib keta oladigan, turli sohalarida hamjihatlikda ishlay oladigan bo‘lishi;

o‘zining axloqiy, intellektual va madaniy darajasini takomillashtirish ustida mutaql ishlay oladigan bo‘lishi.

Shu bilan birga, fuqorolarning bunday sifatlarga ega bo‘lishidan ularning o‘zlari ham, jamiyat ham, davlat ham teng barobar manfaatdordir, demak, ushbu sifatlarni u yoki bu darajada ta‘limning shaxsga va jamiyatga oid ehtiyojlarini ifodalaydi.

Taklif etilgan choratadbirlarning konseptual asosi sifatida, ta‘lim sohasi va jamiyat rivojlanishidagi qaramaqarshiliklarni hal etishning eng samarali yo‘llaridan biri sifatida xorij ijtimoiy nazariya va amaliyotida shakllangan kompetensiyalarni rivojlantirish g‘oyasi kirib keldi. Kasbiy kompetensiyalar konsepsiyasi islohatlar yo‘nalishlariga to‘la mos keladi, negaki, kompetensiyalarga ta‘lim sifatiga yangicha baho berish imkoniyatini beradigan, uning umumiy maqsadlarini aniqlashtirishning muhim bosqichi sifatida qarash mumkin. Aynan shuning uchun kompetensiyaviy yondoshuvi ta‘limni modernizatsiyalashning davlat strategiyasi asosiga qo‘yilgan.

Ta‘lim amaliyotida kompetentlik yondoshuvini amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o‘rganishni talab etadi. Shu bilan birga, ta‘kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo‘lib, u fanlarda yetarli darajada chuqur anglab yetilgan va o‘zining mustahkam o‘rniga ega.

Shu bilan birga, ta‘limda kompetentlikka yo‘naltirilgan yondoshuvlarning dolzarbligi tufayli “kompetentlik”, “kompetensiya”, “tayanch kompetensiyalar” atamalarini ta‘limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama etishda tobora ko‘proq ishlatilmoqda, borgan sari keng tarqalib bormoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiyalar, ulardan qaysi birlari tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullari qanaqaligi tushunib yetish jarayoni jadal bormoqda, ushbu tushunchalarni aniqlashtirish bo‘yicha qizg‘in munozaralar davom etmoqda.

Kasbiy kompetentlikni talqin qilinishida zamonaviy yondashuvlarni tahlili. Kasbiy kompetentlikni talqin qilishga zamonaviy yondashuvlar turlicha bo‘lib, ko‘pincha, mutaxassis tayyorlash sifatining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, malaka talablari va kasbiy maxorat darajasini aniqlash hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik muammosiga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili uning ta‘rifi, mazmuni, tuzilishi va funksiyasiga quyidagi yo‘nalish va yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchi yo‘nalishda ijod qilgan mualliflar Ye.V. Bondarevskaya, A.I. Piskunov, N.S. Rozova, N.B. Kuylovlar kompetentlik va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik shaxsning rivojlanishi, ta‘lim va tarbiyaning natijasi deb hisoblaydi.

Ikkinchi yo‘nalish mualliflari N. V. Kuzmina, A. K. Markova va N. V. Matyashlar kasbiy faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy kompetentlikning muhim xususiyatlarini asos qilib oladilar. Markova A. K. fikricha, bu hodisa mustaqil ravishda harakat qilish imkonini beruvchi psixologik holati, «insonni mehnat maxsuli natijalaridan iborat muayyan mehnat funksiyalarini bajara olish ko‘nikmasi va qobiliyati» deb hisoblaydi. Muallifning fikricha, yuqorida keltirilgan kompetensiyalar insonning kasbiy faoliyatidagi yetukligi, uning kasbiy muloqotchanligi, individualligi va shaxsning kasbiy shakllanganligini ko‘rsatadi.

A. K. Markova takidlashicha kasbiy kompetentlik - mehnat faoliyatining turli jihatlarini majmuini belgilovchi jarayon ko'rsatkichlaridir. Muallif kompetentlikning mavjudligini inson mehnatining natijasi xususiyatiga qarab baholashni taklif qiladi. Uning fikricha, har bir xodim bajaradigan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasi talablariga javob beradigan darajada kompetentli hisoblanadi; «yakuniy natijani baholash yoki o'zgartirish kompetentlik darajasi haqida xulosa qilishning yagona ilmiy usulidir». Shuning uchun kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi operatsional-faoliyatning tarkibiy qismi bo'lib, kasbiy kompetentlikka erishish butun mehnat faoliyati davomida sodir bo'ladi va uning asosi talabalik davrida qo'yiladi. N. V. Kuzmina, V. N. Matyashlar kasbiy kompetentlikni ko'p o'lchovli, murakkab, amaliy harakatlarni bajarishga qaratilgan psixologik-pedagogik talim sifatida qaraydilar.

Uchinchi yo'nalish vakillari Ye. V. Arsishevskaya, M. K. Kabardov kasbiy kompetentlikni psixologik nuqtai nazardan, shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida ko'rib, «inson qobiliyati» ekanligini ta'kidlab, uni kompetentlik tushunchasining sinonimi deb hisoblaydi. Bundan tashqari, A. Maslou har bir insonning o'z qobiliyatlarini to'liqroq ishlatish uchun o'z-o'zini yaxshilashga turtki bo'lganini ta'kidlaydi. «Til tiplari va muloqat qobiliyatlari va kompetensiyalar» maqolasida qobiliyat tushunchasi M. K. Kabardov va Ye. V. Arsishevskaya «tegishli kompetensiyaning tezligi, sifati va darajasiga bog'liq bo'lgan potensial imkoniyatlar va mayllar» deb hisoblanadi.

To'rtinchi yo'nalish vakillari quyidagicha qaraydilar. R.X.Shakurov kasbiy kompetentlik shaxs sifatlarini deb qaraydi. Yu. V. Koynovning fikricha kasbiy kompetentlik bu «subekt faoliyatining individual-integral sifat xarakteristikasi bo'lib, yaxlit holat va shaxsning uni amalga oshirishga tayyorligi» deb hisoblaydi.

Kasbiy kompetentlikni o'rganishdagi beshinchi yo'nalish B. S. Gershunskiy, A. D. Shchekatonova bilan bog'liq. Mualliflar o'rganilayotgan muammoni mutaxassisning bilim darajasi deb hisoblashni taklif qiladilar.

Oltinchi yo'nalish vakillari T.G. Braje, N.I. Zaprudskiy. T. G. Braje - tadqiq qilinayotgan komponentni falsafiy, psixologik, sotsiologik va madaniy jihatlarni o'z ichiga olgan tizim deb hisoblaydi. Kasbiy kompetentlikka erishish nafaqat asosiy bilim, ko'nikma bilan belgilanadi, balki mutaxassis mehnat motivlarini, hamkasblar bilan munosabatlarni, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish qobiliyatini, kasbiy muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati deb hisoblaydi.

Kompetentlik insonning, shaxsning, kasb egasining tavsifi hisoblanadi, shu bilan birga, u «amaldor shaxsning shaxsiy imkoniyatlarining yig'indisi, uning o'z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatida samarali ravishda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi.

Mutaxassisning xislati sifatidagi, uning samarali kasbiy faoliyatga qodirligining tavsifi sifatidagi kompetentlik ta'limga kompetentlik yondoshuvining asosi bo'lib qoldi. Bunday kompetentlikning murakkab, integral xarakterini ta'kidlab o'tgan holda, boshqaruv modellarida uning uch darajasi ajratib ko'rsatiladi:

Integrativ kompetentlik – bilim va ko'nikmalarni yig'ishga va tashqi muhitning tez o'zgarib turadigan sharoitlarida ulardan foydalana bilishga qodirlik;

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik – zehnidrok, odamlarning xulqatvorini tushunish bo'yicha bilimlar va ko'nikmalar, ularning faoliyati motivatsiyasi, kirishuvchanlik va muloqat madaniyatining yuqori darajaliligi.

Boshqaruv faoliyatining muayyan sohalarini bo'yicha kompetentlik – qarorlar qabul qilish, axborot yig'ish, odamlar bilan ishlash metodlari va hokazolar.

Kompetentlik yondoshuvining asoschilaridan biri bo'lgan J.Raven buning muhimligini shunday tushuntiradi: «biz ko'proq va kamroq kompetentli fermerlar, o'qituvchilar, haydovchilar, temirchilar, menedjerlar va harbiy ofitserlarni solishtirganimizda, har bir holatda o'z ishining ustalari namoyish qilgan siyosiy xulqatvor aynan eng muhim bo'lib chiqdi. Aksincha, odamlarning bevosita xizmat burchlari doirasidan tashqaridagi ijtimoiy, tashkiliy va siyosiy cheklashlarga nisbatan biron bir choratadbirlarni ko'rishga layoqatsizligi va hohishi yo'qligi zamonaviy jamiyatda kompetentli bo'lmagan kasbiy xulqatvorning asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi, vaholanki, aynan ular inson bu doira ichida nima qila olishini

belgilaydilar.

Kompetentlikni aniqlash bo'yicha barcha yondoshuvlardagi umumiylik tomoni shundaki, kompetentlik amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi va namoyon bo'ladi. "Tayanch kompetensiyalar" tasniflarining ko'pchiligi inson faoliyatining har xil turlari: ijtimoiy kompetensiyalar, axborot kompetensiyalari, kommunikativ kompetensiyalar va hokazolar bilan bog'lanishi tasodif emas.

Ta'lim jarayonini kompetentlik yondoshuviga yo'naltirish ta'limda metodik shart-sharoitlarni, yangi pedagogik texnologiyalarning mazmuni va qo'llanishini qaytadan ko'rib chiqish va ishlab chiqishni talab etadi, chunki kompetentliklar hech bir fan bo'yicha na bilimlarga va ko'nikmalarga taaluqli emas. An'anaviy ta'limda asosiy e'tibor ta'lim oluvchining ma'lum bir bilim, ko'nikma va malakalar to'plamini egallashiga qaratilgan bo'lganligi sababli, bugungi kunda chuqur bilimlarga ega bo'la turib, ularni zarurat yoki imkoniyat paydo bo'lganda, kerakli vaqtda va kerakli joyda o'z o'rnida qo'llay olmaydigan odamlarni uchratish mumkin.

Kompetentlik yondoshuvi ta'lim sifatini baholash uchun ham juda muhim hisoblanadi, chunki, ta'lim oluvchi tomonidan erishiladigan asosiy ta'limiy natija – kompetentlik hisoblanadi, uning asosiy ko'rsatkichlari esa, bir tomondan ta'lim standartlarining me'yoriy talablariga muvofiqligi, ikkinchi tomondan, shaxsning va turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga mosligidir. Shunday qilib, kompetentlikning birinchi tarkibiy qismi me'yoriy xujjatlarda (O'R qonunlari, DTS va b.) belgilab qo'yilgan ta'lim natijalaridan iborat. Ikkinchi tarkibiy qismini ijtimoiy talablar va ehtiyojlar belgilaydi, bu qism jamiyatning rivojlanishiga mutanosib ravishda universal, o'zgaruvchan bo'lib, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilib turiladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni muammoli o'qitish jarayonida amalga oshirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi, buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rish, unda tizimli faoliyat ko'rsata bilish, yangi muammo va masalalarni hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim jarayoniga kiritishdan iborat.

Tahlillar natijasida ta'limga kompetentlik yondoshuvining shakllanish shart-sharoitlarini aniqlab olish mumkin:

bilimlar izlanish va fikrlash faoliyatlari, ijod jarayoni mahsuli sifatida turli xil shakllarda tizimli, fanlararo hamda umumlashtirilgan holda beriladi;

pedagog "boshqaruvchi", "hamkor" sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni, hamkorlik qilish, demokratik ravishda ta'sir o'tkazish, yordam berish, ruhlantirish, talabaning shaxsiy tashabbuslariga e'tiborli bo'lish, uning shaxsini rivojlantirishga intilish pozitsiyasini egallaydi;

talaba pedagoglar va boshqa talabalar bilan faol hamkorlik qilishga, bir-birini qo'llab-quvvatlash va o'zaro ma'suliyatlilik muhitini yaratishga yo'naltirilgan;

ta'lim oluvchilar uchun ta'lim va tarbiyani tashkil etishning guruhli shakllari orqali shaxslararo munosabatlar va muloqatning xilma-xil shakllarini amaliy ravishda o'zlashtirishlari, hamkorlikda ishlash va ijod qilish quvonchini his etishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi;

harakat va xulq-atvorlarning oldindan belgilab qo'yilgan namunasiga mosligini baholashdan voz kechish.

Kasbiy kompetensiyani shakllanishida shaxsdan quyidagi sifatlar talab etiladi: tashabbuskorlik, masuliyatlilik, mehnatsevarlik, maqsadga yo'nalganlik, o'ziga ishonch. Yuqorida qayd etilgan sifatlarni shakllanganligi insonni shaxsiy va kasbiy faoliyatda o'zini tiklab olgan shaxs va individuallikni ifoda etadi. B.D.Elkonin yozadi "Biz bilimni madaniyat predmeti ekanligidan voz kechmagan holda, balki bilim olishni shaklidan voz kechamiz (bilim nomiga, har extimolga qarshi, shunchaki malumot olish uchun emas, balki kompetensiyaviy yondashuvda bilim nima? Tushuncha nima? Birinchidan bilim bu – shunchaki malumot emas, ikkinchidan bilim bu – vaziyatni o'zgartirishga xizmat qiladigan vosita sifatida, uchinchidan bilim bu – vaziyatni o'zgartirishga qaratilgan fikriy vosita bo'lsa unda to'g'ri va u bu holatda tushuncha vazifasini haqiqatda bajarayotgan bo'ladi.

Dunyo iqtisodiy bilimlar tomon, ya'ni rivojlanishning asosiy omillari bo'lmish bilim va inson kapitaliga tobora yaqinlashib bormoqda. Shu boisdan ham, yoshlarni kelajakka, yani kasbiy faoliyatga tayyorlashda fanlar integratsiyaning o'zni va roli oshib bormoqda, shu

o'rinda STEAM ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi. STEAMning maqsadi – talim oluvchilar tafakkurini rivojlantirish hamda ularni fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san'at kabi fanlardan olgan bilimlarini samarali qo'llashga o'rgatishdan iborat. Shu bilan birga, STEAM ta'limi murakkab o'quv loyihalarini amalga oshirishda fanlarni o'zaro uyg'unlikda o'rganish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi va xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini taxlili asosida shuni takidlash mumkinki, STEAM ta'limidan foydalanishdan asosiy maqsad - talabalarni savollarni to'g'ri tuzishga va ularga eksperimental tarzda javob topishga o'rgatishdir. Shu bilan birga, talabalar berilgan vazifani birgalikda, o'zaro hurmat bilan, oson va tezkor hal etish kerakligini tushunishlari zarur. An'anaviy ta'lim – mazmunni «tinglang, eslang, ishlatmang» kabi yondashuv shaklida mashg'ulotlar olib borilsa, STEAM – yondashuvda esa «mushohada yuriting - o'rganing - harakat qiling - amalda qo'llang» tamoyillaridan tashkil topadi. Ushbu innovatsion yondashuv ta'lim sohasi bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarga qiziqqan har bir inson o'zi uchun yangi va qiziqarli ma'lumotlarni topadi.

Bunday innovatsion yondashuv asosida, yani STEAM (Science - fan, Technology - texnologiya, Engineering - muhandislik, Art - san'at, Mathematics - matematika) sohasida ta'lim dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. OTM talabalarining qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, ayrim fanlar va ularni o'rganish darajasini tanlab olish orqali o'quv jarayonini individuallashtirishni nazarda tutadi, talabalarining qiziqishlaridan kelib chiqqan holda auditoriyadan tashqari amaliy mashg'ulotlar o'tkazish nazarda tutiladi.

Modulli-kompetentli yondashuv asosida bo'lajak texnologik talim o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish

Bugungi kunda kasbiy-pedagogik tayyorgarlik sifatini aynan bo'lajak mutaxassisning kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish mumkin, bunga ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion talim texnologiyalarni joriy etish orqali erishish mumkin. Shunday texnologiyalardan biri modulli ta'lim texnologiyasidir. Kasbiy-pedagogik jarayonida ta'limga modullikompetentli yondashuv ta'lim jarayonida shakllantirilishi va rivojlantirilishi zarur bo'lgan tayanch, kasbiy va maxsus kompetensiyalar kompleksini loyihalashtirish va amalga oshirish imkonini beradi.

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida ta'limning nazariy, amaliy va ijtimoiy jihatlarini birlashtirish orqali ta'lim jarayonida qator yangi imkoniyatlar hosil bo'ladi, kompetentli yondashuv asosidagi ta'limni amalga oshirish uchun qo'shimcha didaktik shart-sharoitlar yaratiladi, ya'ni:

Bilimlarning tizimliliigi va fanlararo integratsiyasi ta'minlanadi;

Ta'lim mazmunining dinamik ravishda kengayib borishiga imkon yaratiladi;

Ishlab chiqarish texnologiyalariga mos ravishda mutaxassislarning faoliyat yuritish rejalarini tuzish imkoniyatlari paydo bo'ladi;

Funksional vazifalari va majburiyatlari bilan tanishtiriladi;

Harakatlar va bajariladigan ishlarni amalga oshirishning yo'llari ko'rsatiladi;

Bo'lajak mutaxassislarning lavozimga oid va shaxsiy manfaatlarini hisobga olinadi.

Oliykasbiyta'limd modullikompetentli yondashuv asosidagi o'quv jarayoni shunday tashkil etiladiki, bunda ta'limning maqsadi sifatida ta'lim oluvchining kasbiy kompetensiyalarining yig'indisi, unga erishish vositasi sifatida esa kasbiy ta'limning mazmunini va tuzilmasini modulli tarzda qurish hisoblanadi.

Bunda kompetensiya tushunchasi bilish va tushunish (nazariy bilim va tushunchalarga egalik, o'rganish va tushunish qobiliyati), qanday harakat qilishni bilish (bilimlarni amaliy va tezkor ravishda muayyan vaziyatlarda qo'llay olish), qanday bo'lishni bilish (qadriyatlarini bilish va jamiyatda o'z o'rnini topish)ni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib ifodalanadigan bo'lsa, kompetentlik sub'ektning kognitiv, motivatsion, qadriyatlarga oid va amaliy jihatlarini birlashtirgan integrativ xususiyati bo'lib, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni oshirish, kasbiy-grafik kompetensiyalarni shakllantirish, ishlab chiqarish, muxandislik grafikasi, yani konstruktorlik-texnologik, loyihalash sohasida muvaffaqiyatli amaliy vazifalarni bajarishida, mustaqil harakat qila olishida ko'rinadi.

Talabalar tomonidan modullarni o'rganishda o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari mavjud bo'ladi. Har bir modul uchun auditoriya yuklamasi, talabalarning mustaqil ishlari, kurs ishlari, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar, shuningdek, amaliyotlar, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari, bitiruv malakaviy ishning boblarini yozish va hokazolar taqsimlangan bo'ladi. Shu tarzda muayyan darajani berish uchun rasmiy ravishda tan olinadigan, modullarning yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim dasturi shakllantiriladi.

Shunday qilib, oliy kasbiy ta'limiy dasturni o'zlashtirishdan maqsad – talaba tomonidan muayyan kompetensiyalarni egallanishi bo'lib, ularni shakllantirish vositasi esa kasbiy ta'limiy dasturning mustaqil birligi sifatidagi modul hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Беликов В. А. Личностная ориентация учебно-познавательной деятельности (дидактическая концепция): Монография. - Челябинск: ЧГПУ «Факел», 1995.-141 б.

2. Зеер, Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход/Э.Ф. Зеер, А.М. Павлова, Э.Е. Симанюк. – М.: МПСИ, 2005. – 216 с.

3. Набатова, Л.В. Творческо-конструкторская деятельность студентов как средство формирования критического мышления / Л.В. Набатова, Э.Р. Гайнеев // Среднее профессиональное образование. – 2009. – № 8. – С. 22–24.

Абдуқодиров А. А. ва бошқалар. Ахборот технологиялари. – Т., 2002.

Абдуқодиров А. А., Пардаев А. Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. — Т.: Фан, 2009.

6. Н.Муслимов, Д.Сайфуров, М.Усмонбоева ва А.Тўраевлар. Веб-технология асосида электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш ва уларни амалиётга жорий этиш. – Т., 2015

7. Муслимов Н.А, Уразова М.Б. Бўлажак ўқитувчиларнинг профессионал малакасини шакллантиришнинг техник воситаси сифатида веб-сайт вазифаси // Ҳаёт давомида таълим: Барқарор ривожланиш учун узлуксиз таълим: Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Санкт-Петербург: Санкт-Петербург давлат университети, 2014. П 127-129.

8. Муслимов Ш.Н. “Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларининг касбий график компетентлигини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш” Т-2020:, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.

9. Ш.Муслимов., М.Халимов., Ш.Дилшодбеков., Х.Тўраев. “Чизма геометрия ва Мухандислик графикаси” ўқув кўлланма Адабиёт учқунлари нашриёти, 2020. -168 б.

10. Муслимов Ш.Н. “Чизма геометрия ва Мухандислик графикаси” электрон ўқув кўлланма 2020. Республика интеллектуал мулк агентлиги гувоҳномаси. №DGU 07744

11. Муслимов Ш.Н., Холмурзаев А.А., Мадаминов Ж.З., Хомидов А.Қ. “Чизма геометрия ва Мухандислик графикаси” фанидан талабалар билимини баҳолаш учун ЭҲМ дастури 2020. Республика интеллектуал мулк агентлиги гувоҳномаси. №DGU 08206

12. Муслимов Ш.Н. Тураханов Ш.У. Матлаб И.А. “Чизмачилик” электрон кўлланма (мобил илова) 2020. Республика интеллектуал мулк агентлиги гувоҳномаси. №DGU 08816